

O`PKA SILI BILAN KASALLANGAN BEMORLARGA STOMATOLOGIK YORDAM KO`RSATISHNING AHAMIYATI

Nargiza Toirjonovna Mamatova

Samarqand davlat tibbiyot instituti assistenti

Abduvaliy Abduhakimovich Ashurov

Samarqand viloyat Ftiziatriya va pulmonologiya
markazi oliy toifali shifokori

Baxrombek Abduvaliyevich Abduhakimov

Samarqand davlat tibbiyot instituti talabasi

ANNOTASIYA

O`pka sili bilan kasallangan bemorlarda odontogen o`choqning bo`lishi kasallik jarayonining o`ziga xos intoksikasiya alomatlari, qondagi o`zgarishlar, o`pkaning yemirilishi, immunoglobulinlar va immunitet tarkibiy qismlarining o`zgarishi bilan ajralib turadi. Ishning maqsadi sil kasalligi bo`lgan bemorlarda tish kariyesining oldini olish va davolash samaradorligini oshirishdan iborat edi. O`pka sili bilan kasallangan bemorlarni davolashda stomatologik yordam ko`rsatish o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, bu sil kasalliging kechish jarayoniga, tarqalish darajasiga bog`liq bo`ladi. Silga qarshi kurashish dispanserida davolanayotgan bemorlar nafaqat silga qarshi kimyoviy terapiya, balki stomatolog ko`rigidan o`tib stomatologik yordam olishi kerakligi aniqlandi. Davolovchi shifokorlar stomatologlar bilan hamkorlikda o`pka sili bilan kasallangan bemorlarning butun organizmini davolashi kerak.

Kalit so`zlar: o`pka sili, stomatologik yordam, og`iz bo`shlig`i, kariyes, tish, davolash.

ROLE OF PROVIDING DENTAL CARE TO PATIENTS WITH PULMONARY TUBERCULOSIS

ABSTRACT

The presence of odontogenic lesions in patients with pulmonary tuberculosis is characterized by specific symptoms of intoxication, changes in blood, destruction of

the lungs, changes in immunoglobulins and immune components. The aim of the study was to improve the effectiveness of prevention and treatment of dental caries in patients with tuberculosis. Dental care in the treatment of patients with pulmonary tuberculosis has its own characteristics, which depend on the course of the disease, the degree of spread. It has been established that patients undergoing treatment at an anti-tuberculosis dispensary should receive not only chemotherapy, but also dental care after a dental examination. Treating physicians should work with dentists to treat the entire body of a pulmonary tuberculosis patient.

Keywords: pulmonary tuberculosis, dental care, oral cavity, caries, teeth, treatment.